

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**  
**AKADEMIYASI**

**AXMEDOV ANVAR TOIROVICH**

**DAVLAT BOSHQARUVIDA RAG‘BATLANTIRISH**  
**USULLARINI QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY**  
**MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(ICHKI ISHLAR ORGANLARI MISOLIDA)**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Axmedov Anvar Toirovich**

Davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish (ichki ishlar organlari misolida)..... 3

**Ахмедов Анвар Тоирович**

Совершенствование организационно-правовых механизмов применения методов стимулирования в государственном управлении (на примере органов внутренних дел).. ..... 19

**Akhmedov Anvar Toirovich**

Improvement of organizational and legal mechanisms for the use of incentive methods in public administration (based on the example of the internal affairs authorities) . ..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 41

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**  
**AKADEMIYASI**

**AXMEDOV ANVAR TOIROVICH**

**DAVLAT BOSHQARUVIDA RAG‘BATLANTIRISH**  
**USULLARINI QO‘LLASHNING TASHKILY-HUQUQIY**  
**MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(ICHKI ISHLAR ORGANLARI MISOLIDA)**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu669 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/>) va “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Axmedov Davron Kuvanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Daumenov Berdaq Aymuratovich**  
yuridik fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**  
**Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 ilmiy kengashning 2025-yil 26-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 230100, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko‘chasi, 1-uy. Tel.:(+99861) 223-60-49, faks: (+99861) 223-60-49, E-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (262-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 230100, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko‘chasi, 1-uy. Tel.:(+99861) 223-60-49, faks: (+99861) 223-60-49).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 12-martdagi 9-raqamli reestr bayonnomasi).



**E.D. Kutibayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M. Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**Z.A. Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo iqtisodiy tizimida ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning tobora rivojlanib, mehnat bozorida xususiy sektor ulushining ortishi, davlat xizmatlariga malakali kadrlarni jalb etishning yangi yondashuvlarini joriy etishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda. Boisi, nodavlat ish beruvchilar taklif etayotgan maosh, mehnat rejimi hamda boshqa qulayliklar kadrlar transformatsiyasining muhim omili sifatida xizmat qilmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining (International Labour Organization) ma'lumotiga ko'ra, "2024-yilda rivojlangan davlatlardagi mavjud ish o'rnining 90 foizdan ortig'i xususiy sektorning hissasiga to'g'ri kelgan"<sup>1</sup>. Bu davlat organlari faoliyati samaradorligini ta'minlash maqsadida boshqaruvga malakali mutaxassislarni jalb etuvchi motivatsion rag'batlantirish usullari va maqbul ish sharoitlariga ega bo'lgan, shaffof, adolatli hamda zamonaviy mehnat muhitini yaratishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini rivojlantirib borishni taqozo etmoqda.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida davlat xizmatchilarining motivatsiyasini oshirish (Rublis servise motivatsion (RSM))<sup>2</sup> dasturlari va ularni rag'batlantirish JEGS (job evolution and grading surrort)<sup>3</sup> texnikasini yanada takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish tendensiyasi ortib bormoqda. Mazkur tadqiqotlarda davlat boshqaruviga malakali mutaxassislarni jalb etishning samarali usullarini aniqlash, xizmatchilar mehnatini munosib rag'batlantirish uchun xodimlarga differensial ish haqini joriy etish, mukofotlar, imtiyozlar va qo'shimcha dam olish kunlarini berish, ishga qabul qilishdagi korrupsion omillar va byurokratik talablarni kamaytirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy-huquqiy jihatlariga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat boshqaruvini takomillashtirish siyosati izchil davom ettirilmoqda. Buni "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish"ga ustuvor yo'nalish maqomi berilgani<sup>4</sup>, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunining amalga kiritilgani<sup>5</sup>, shuningdek, 118 mingdan ziyod<sup>6</sup> davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy himoyalash choralari ko'rilyotgani ham tasdiqlaydi. O'z o'rnida, davlat boshqaruv organlari xizmati jozibadorligini oshirish, tizimga zamonaviy ish uslublarini joriy etish hamda xodimlarni rag'batlantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ma'muriy huquqining dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi (2018),

<sup>1</sup> <https://www.ilo.org/partnering-development/private-sector-and-non-state-partners/ilo-private-sector-and-employment-promotion>

<sup>2</sup> <https://www.qic-wd.org/umbrella-summary/public-service-motivation>

<sup>3</sup> <https://www.gov.uk/government/publications/job-evaluation-and-grading-support-jegs-for-civil-servants>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni //— URL:<https://lex.uz/ru/docs/6600413#6605156>;

<sup>5</sup> <https://lex.uz/docs/6145972>

<sup>6</sup> <https://raqobat.gov.uz/davlat-hizmatchilari-huquqij-va-ijtimoiy-himoyada/>

“Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi (2018), “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” (2022), qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2017), “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019), “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019), “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022), “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligining reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022) qarorlari, shuningdek “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023) va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023) Farmonlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusiga oid umumiy masalalar ma‘muriy huquq sohasida tadqiqot olib borgan olimlardan X. Azizov, B. Alimov, X. Alimov, Sh. Asadov, Sh. Ismoilov, A. Yo‘ldoshev, A. Jurayev, F. Maxmudov, F. Yuldasheva, B. Mirboboyev, J. Nematov, N. Said-Gaziyeva, X. Xayitov, R. Xakimov, I. Xamedov, E. Xojiyev, O. Xusanov, S. Yusupov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Ular tomonidan tayyorlangan ishlanmalar, darsliklar va ilmiy maqolalarda asosan davlat boshqaruv tizimi mexanizmlari, xodimlarning rag‘batlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlarning ayrim jihatlar yuzasidan mulohazalar yuritilgan.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari qo‘llashning huquqiy asoslariga doir ilmiy xulosalarni – A. Jurayevning tadqiqotlarida, davlat xizmatchilarni rag‘batlantirishning nazariy, huquqiy va falsafiy asoslariga doir ayrim mulohazalarni – Arastu, Aflotun, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Nizomulmulk, Alisher Navoiy qalamiga mansub tarixiy manbalarda uchratish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda davlat boshqaruvida rag‘batlantirishning ayrim jihatlari M. Veber, A. Fayol, L. Yexard, D. Makgregor, A. Maslou, M. Dyuverje, D. Iston va M. Kroze (G‘arblik olimlar), shuningdek, G.V. Atamanchuk, I. Baranov, N. Gushina, V. Kozbanenko, V.I. Knoring, G.L. Kupryashin, D. Lipinskiy, A. Malko,

A.Y. Ponamareva, V. Popova Y. Starilov, I.A. Vasilenko (MDH olimlari) va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan<sup>7</sup>.

Mazkur mualliflarning ma'muriy huquq fanining rivojiga muayyan darajada hissa qo'shgan. Biroq, ayni vaqtga qadar mamlakatimizda davlat boshqaruvida rag'batlantirish usullarini qo'llashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid kompleks tadqiqotlar o'tkazilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi "Davlat hokimiyatini demokratlashtirish va huquqni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** davlat boshqaruvida rag'batlantirish usullarini qo'llashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

davlat boshqaruvi organlari xodimlarining faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy usullarini tadqiq etish;

davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan konsepsiyalar va davlat dasturlarini huquqiy tahlil qilish;

davlat boshqaruvi organlari hamda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

davlat boshqaruvi organlarida rag'batlantirishning usullarini qo'llash natijadorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni berish;

mamlakatimizda olib borilayotgan yangi ma'muriy islohotlar jarayonida, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini tashkillashtirish xususiyatlarini o'rganish;

zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali davlat boshqaruvi organlari, xususan, ichki ishlar organlari faoliyatini optimallashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berish;

ilg'or xorijiy tajribalarning tahlillariga asoslanib davlat xizmatchilarini, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarini rag'batlantirish mexanizmiga oid tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Yangi O'zbekiston sharoitida davlat boshqaruvi organlari tizimida, xususan ichki ishlar organlarida qo'llaniladigan rag'batlantirish usullari bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning predmetini** davlat boshqaruvi organlari xodimlarini rag'batlantirish usullarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularni qo'llash amaliyoti hamda mazkur sohaga oid konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ustida ishlash jarayonida ilmiy bilishning induksiya, deduksiya, kuzatish, umumlashtirish, tahlil qilish, formal-mantiqiy, tarixiy, aniq sotsiologik, shuningdek, ilmiy manbalarni o'rganish kabi usullaridan keng foydalanildi.

---

<sup>7</sup> Bu va boshqa mualliflarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat xizmatchisini tegishli ravishda rag‘batlantirish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta‘minlanishini qonunchilikda mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

davlat organlari xodimlarini rag‘batlantirish hamda xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarilishini ta‘minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etish lozimligini normativ-huquqiy tartibga solishning afzalliklari isbotlangan;

davlat xizmatchisiga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llashda xodimning muayyan davrlardagi (oy, chorak, yarim-yil, bir-yil) mehnat faoliyatining muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari, bajarilgan vazifalarning muhimlik darajasi, murakkabligi, shuningdek, faoliyatida erishilgan yuqori natijalarini inobatga olish lozimligi asoslab berilgan;

Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, xodimlarini rag‘batlantirish va mukofotlash jamg‘armasi mablag‘laridan faqat DYHXX xodimlarini har oy pul bilan mukofotlash xarajatlarni qoplash, shuningdek, DYHXX moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadida foydalanish zarurligi asoslangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ijro etuvchi va huquq tartibot organlarida ilg‘or va innovatsion takliflar beruvchi yosh kadrlarni tanlab olish, muayyan sohalar bo‘yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish, hamda meritokratiya mexanizmlari (raqobat – tanlov – sifat)ni keng joriy etish imkoniyatini beruvchi “huquqiy sosializatsiya” tizimidan foydalanib, boshqaruv personaliga kompetensiyaviy yondashish uslubiyoti shakllantirilgan;

davlat boshqaruvi organlari tizimida, jumladan kadrlar bilan ishlash tizimida ma‘naviy va huquqiy jihatdan eskirgan ma‘lumotnoma-obyektivka andozasidan voz kechib, rezyume (SV) tizimiga o‘tilishi asoslangan;

davlat boshqaruv organlari faoliyatida rag‘batlantiruvchi uslublarni oshirish yuzasidan ilg‘or xorijiy tajribalar va uslublar qiyosiy tahlil qilinib, ularni davlat boshqaruvida motivatsion mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishida qo‘llash yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

davlat boshqaruvi organlari faoliyatini samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv uslublari hamda texnologiyalarning ahamiyatiga qaratilgan qator amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari (reprezentativlik) xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo‘llash amaliyotidagi ilg‘or tajribalar, sotsiologik (anketa so‘rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma‘lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan, olingan natijalar vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan, dissertatsiyada 350 nafar davlat idoralari xodimlari, 160 nafar ilmiy-pedagog xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari umumlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ifodalangan xulosa, taklif va tavsiyalardan kelgusi tadqiqot ishlarida, qonun ijodkorligi jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotida,

ma'muriy huquqqa doir qonun hujjatlarining tegishli normalarini talqin etishda, shuningdek, "Ma'muriy huquq", "Mahalliy boshqaruvning tashkiliy-huquqiy asoslari", "Menejmentning zamonaviy usullari" va "Mehnat huquqi" fanlarini nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma'muriy huquq sohasidagi qonun hujjatlarining takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflarning joriy etilishi zamonaviy sharoitlarda boshqaruv tizimi samaradorligiga, ma'muriy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirishga, davlat organlari xodimlariga nisbatan rag'batlantirish choralari natijadorligini oshirish, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilishida ko'rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Davlat boshqaruvida rag'batlantirish usullarini qo'llashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish doirasida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

davlat xizmatchisini tegishli ravishda rag'batlantirish uning kasbiy kompetensiyalarini hamda alohida xizmatlarini xolisona va adolatli baholash asosida ta'minlanishini qonunchilikda mustahkamlash bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son qonunining 21-moddasi 3-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasining 2024-yil 17-oktabrdagi 04/3-10-02-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi davlat xizmatchilarini rag'batlantirishda xolislik prinsipini ta'minlanishiga xizmat qilgan;

davlat organlari xodimlarini rag'batlantirish hamda xizmatda lavozim bo'yicha ko'tarilishini ta'minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son qonunining 36-moddasining 1-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasining 2024-yil 17-oktabrdagi 04/3-10-02-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi davlat organlari xodimlarini rag'batlantirish tariqasida lavozim bo'yicha ko'tarishda faoliyat samaradorligini inobatga olinishiga asos bo'lgan;

davlat xizmatchisiga nisbatan rag'batlantirish choralari qo'llashda xodimning muayyan davrlardagi (oy, chorak, yarim-yil, bir-yil) mehnat faoliyatining muhim samaradorlik ko'rsatkichlari, bajarilgan vazifalarning muhimlik darajasi, murakkabligi, shuningdek, faoliyatida erishilgan yuqori natijalarini inobatga olish haqidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son qonunining 45-moddasining 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasining 2024-yil 17-oktabrdagi 04/3-10-02-son dalolatnomasi*). Mazkur taklifning amalda tatbiq etilishi davlat organlari xodimlarini rag'batlantirish mezonlarining takomillashtirishga xizmat qilgan;

Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, xodimlarini rag'batlantirish va mukofotlash jamg'armasi mablag'laridan faqat DYHXX xodimlarini har oy pul bilan mukofotlash xarajatlarni qoplash,

shuningdek DYHXX moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadida foydalanish yuzasidan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 514-son qaroriga Hukumatning 2019-yil 2-avgustdagi 646-son qarori bilan kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning 3-bandi 5-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2024-yil 16-oktabrdagi 12/1-986-son dalolatnomasi*). Ushbu takliflarning qonunchilikka kiritilish davlat xizmatchilarini mukofotlash manbasini huquqiy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida muhokama qilinib, maqullangan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda 7 ta, xalqaro jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Davlat boshqaruvi va unda qo‘llaniladigan rag‘batlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruv organlari faoliyatida qo‘llanilayotgan boshqaruv uslublari, davlat boshqaruv organlari xodimlari faoliyati samaradorligini oshirishga, ularni qo‘llab-quvvatlashga va muvaffaqiyatli mehnati uchun rag‘batlantirib borishga qaratilgan mezonlar hamda davlat xizmatida qo‘llaniladigan rag‘batlantirish usullari va uning o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu jarayonni takomillashtirishning ijtimoiy-huquqiy zarurati tahlil qilingan. Olimlarning tadqiqot mavzusiga oid bahsli fikr-mulohazalariga tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*Davlat boshqaruvi va boshqaruv organlari samaradorligi mezonlari*” deb nomlanib, unda muallif davlat boshqaruvi va boshqaruv organlari samaradorligi murakkab va ko‘p tarmoqli ijtimoiy-huquqiy jarayonligini, davlat boshqaruvi bo‘yicha foydali nazorat mexanizmlarini joriy etish har qanday

samaradorlik va natijadorlikning ajralmas qismiligini, markaziy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vazifalar va hisobdorlikning miqdori hamda sifat darajasi samaradorlikni belgilashda muhimligini alohida ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqotchi tomonidan N. Makiavelli, F. Gundau, V. Vilson, A. Fayol, G. Emerson, G. Ford, G. Xeytri, L. Apson, G. Simon, K. Ridli, D. Fiks, B. Rayzberg, L. Lozovskiy, Y. Starodubsev kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, xulosalarini tahlil etish orqali "davlat xizmatchisi", "samaradorlik", "hisobdorlik", "sifat", "natijadorlik" va "rag'batlantirish" tushunchalari atroflicha o'rganilib, "davlat xizmatchisi" hamda "davlat boshqaruvi organlari faoliyat samaradorligi" tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan tahlillar, milliy (E. Xojiyev, O. Xusanov, S. Yusupov) va xorijiy (D. Baxrax, S. Channov, O. Kiseleva) olimlarning fikr-mulohazalari va anketa-so'rovnoma natijalariga tayangan holda davlat boshqaruvi va boshqaruv organlari samaradorligining asosiy mezonlari va samaradorlikni baholash vositalari aniqlashtirilgan. Jumladan, natijadorlik, resurslardan foydalanishning maqbulligi, vaqt ko'rsatkichlari, taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy qoniqish hosil qilish, institutsional samaradorlik, barqarorlik va bardoshlilik, shaffoflik va javobgarlik, xalqaro reytinglar va taqqoslashlar boshqaruv organlari samaradorligining asosiy mezonlari ekanligi asoslantirilgan.

Dissertant samaradorlikni baholash vositalari sifatida statistika ma'lumotlari, so'rovnomalari va jamoatchilik fikrini o'rganish, davlat dasturlari va strategiyalarining bajarilishini tahlil qilish, hokimiyat faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini monitoring qilish kabilar ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, samaradorlikni baholash orqali hududlarning asl holatini aniqlash va bu orqali strategik maqsadlarni belgilash imkoniyati vujudga kelishi isbotlangan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi esa *"Davlat xizmatida qo'llaniladigan rag'batlantirish usullari va uning o'ziga xos xususiyatlari"* deb nomlanib, unda tadqiqot davomida o'rganilgan tarixiy manbalar, huquqshunos olim(X. Azizov, B. Alimov, Sh. Asadov, Sh. Jurayev, F. Isayeva, Sh. Ismoilov, A. Yo'ldoshev, F. Yuldasheva, F. Maxmudov)larning ilmiy izlanishlari, fikr-mulohazalarini tahlil qilish natijasida davlat boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish sharoitida boshqaruv xodimlarini har jihatdan rag'batlantirib borish – harakatchan boshqaruvchi kadrlar, aynan mos keluvchi zamonaviy boshqaruv uslublari va ustuvor boshqaruv tamoyillarini chuqur tadqiq etish zaruriyatini, davlat boshqaruvi jarayonida yuzaga keladigan turli munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini, davlat boshqaruvida huquqiy mexanizmlar orqali xodimlarning mehnat faoliyatini va samaradorligini kuchaytirish, qo'llab-quvvatlash hamda yanada takomillashtirish mumkinligi ta'kidlab o'tilgan.

Dissertant mazkur paragrafda milliy-tarixiy tajriba sifatida Amir Temur davlatidagi kadrlar tizimida rag'batlantirish masalalarini tahlil etish va uning ayrim jihatlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflarni ilgari surish muhimligini ta'kidlagan.

Tadqiqotchi temuriylar davlatida turli mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarini rag'batlantirishning aniq tizimi yaratilganligini, bu rag'batlantirish turli

in'omlar, e'tirof etish, ma'naviy qo'llab-quvvatlash va yorliqlarni taqdim etish orqali amalga oshirilganligini keltirib o'tgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashning huquqiy-tashkiliy holati: milliy va xorijiy tajriba”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi davlat organlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan rag‘batlantirish turlari, rag‘batlantirishda xorijiy davlatlarning ijobiy tajribalari o‘rganilgan, shuningdek, O‘zbekistonda boshqaruv tizimini o‘zgartirishning muhim jihati hisoblangan davlat organlarida xodimlar bilan ishlashning yangi usullarini joriy etish, davlat boshqaruvida xodimni rag‘batlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llash amaliyotini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos jihatlari”* deb nomlanib, mazkur paragraf davlat xizmati va davlat xizmatchisi huquqiy kategoriyalariga yondashuvlar, davlat xizmatchilarining mehnat sifati va miqdorini ochirishuvchi mehnat motivatsiyasi, davlat boshqaruvida xodimlarni huquqiy rag‘batlantirish omillari hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar tahliliga bag‘ishlangan.

Dissertant ushbu paragrafda xodimni rag‘batlantirishni quyidagi bir nechta turlarga ajratib chiqqan:

birinchi turi – *moddiydir*. Uning asosi esa pul qiymati bilan belgilanadi. Ish haqi yoki boshqa turdagi mukofot shaklidagi pul eng aniq tashqi stimul hisoblanishi asoslantirilgan;

ikkinchi turi – *nomoddiydir*. Bu yo‘nalishda personalga ta’sir qilishning juda ko‘p variantlari mavjudligi, nomoddiy rag‘batlantirish moddiy rag‘batlantirishdan kam ahamiyatli emasligi, ba’zi hollarda ular yanada muhim rol o‘ynashi to‘g‘risida bildirib o‘tilgan;

uchinchi tur – *tashkiliy rag‘batlantirish*. Ushbu rag‘batlantirish turi mehnat va boshqaruvni tashkil etishni ratsionallashtirish bo‘yicha faoliyatni ifodalaydi. Bu yo‘nalish biznes sektorda haddan tashqari ko‘rsatmalar, buyruqlar va qoidalarning qisqartirilishi bilan bog‘liqligi asoslangan;

to‘rtinchi tur – *professional* – ya’ni kasbiy faoliyat bilan bog‘liq. Muayyan ma’lumotga ega bo‘lgan, ma’lum bir lavozimga, muayyan mehnat majburiyatlari bilan kelgan shaxs o‘zga vazifalar bilan emas, balki o‘z ishida shug‘ullanishi kerakligi bildirib o‘tilgan;

beshinchi tur – *keng ijtimoiy rag‘batlantirish* bo‘lib, uning asosida xodimda jamiyatda ma’lum o‘rin egallash va ijtimoiy mavqeini yaxshilash istagi shakllanishi ta’kidlab o‘tilgan;

oltinchi tur – *tor ijtimoiy rag‘batlantirish*. Bu bevosita xodimga tashkilotning o‘zida ma’lum maqomni egallash imkoniyatini berishga qaratilgan. Bu personal bilan ishlashning juda foydali usullaridan biri, ammo har doim ham eng samaralisi emasligi isbotlangan;

yettinchi tur – *jamoaviy rag‘batlantirish* bo‘lib, ushbu rag‘batlantirish turi guruhlariga ta’sir qilish resurslarni tejashga yordam berishi, shuningdek, har bir xodim tomonidan topshiriqning bajarilishini nazorat qilish mexanizmini ta’minlashi isbotlangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llash sohasidagi milliy va xorijiy tajribalarning uyg‘unlashuvi”* deb nomlanib, unda davlat xizmatchilarini moddiy va nomoddiy rag‘batlantirishni tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajriba, shu jumladan, ushbu masalalarni huquqiy tartibga solishga yondashuvlar hamda barcha darajadagi davlat organlari o‘rtasidagi samarali hamkorlik talablari, ayrim xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasi bayon etilgan.

Tadqiqotchi Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Fransiya, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Singapur kabi davlatlarning ijro etuvchi hokimiyat organlarida moddiy va nomoddiy rag‘batlantirishning asosiy usullari va vositalarini tahlil qilib, ulardan unumli foydalanish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni bildirib o‘tgan. Xususan, Buyuk Britaniya, Xitoy Xalq Respublikasi va Singapur davlatlari tajribasidan kelib chiqib, davlat xizmatchilarining mehnatini baholashda foydalaniladigan koeffitsiyentlar, formulalar va shkalalar loyiha faoliyatining barcha ishtirokchilari uchun sodda va tushunarli bo‘lishi, byurokratik jihatlar va o‘lchash qiyin bo‘lgan ko‘rsatkichlar minimal darajada bo‘lishi lozimligi; muayyan boshqaruv loyihasi faoliyatida ishtirok etganlik uchun haq to‘lashni tashkil etish davlat xizmatchisining rasmiy maoshi, egallab turgan lavozimi, sinf chini, ish staji va loyihada ishlagan vaqtiga bog‘liq bo‘lmasligi kerakligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashni takomillashtirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida tadqiqotchi tomonidan davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida boshqaruv qarorlari qabul qilish va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda tatbiq etishda asosiy tamoyillar, shuningdek, korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi *“O‘zbekistonda davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashning milliy tizimini shakllanishi va rivoji”* deb nomlanib, mazkur paragraf davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashning milliy tizimi shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlangan.

Dissertant ilmiy tahlillar asosida davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlarida boshqaruv qarorlari qabul qilish va rag‘batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda tatbiq etishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan:

1. **Zaruriyat** – rag‘batlantirish tizimini joriy qilish kerakligi yoki kerak emasligini aniqlash. Jamoatchilik fikrini eshitish, onlayn-so‘rovnomalar, tanqidiy tahlil usullari orqali real vaziyatga baho berish orqali yangi talab yoki normani joriy etish zaruriyatini aniqlash. Bunda o‘sib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlar va bozor munosabatlarini rivojlanishini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

2. **Proporsionallik** – qo‘llaniladigan rag‘batlantiruvchi chora va vositalar tanlovi belgilangan maqsadlarga proporsional bo‘lishi lozim. Strategik maqsadlarni belgilashda “har bir inson” manfaatlarini uyg‘unligini hisobga olish lozim. Amalga oshirilayotgan rag‘batlantiruvchi omillarning maqsadga muvofiqligini tekshirish, tegishli ekspertlar xulosasini olish, har bir normativ tushdagi qarorlarni jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish talab etiladi.

3. **Subsidiarlik** – masalalarning eng quyi yoki markazdan uzoq darajalarda hal etilishini eng sodda va eng kam resurs talab etadigan yo‘l bilan amalga oshirish shakli. Vazifalar quyi darajada hal qilinishiga yo‘naltirilgan tashkiliy va huquqiy tamoyil, ya’ni vazifa, funksiya va vakolatlarni nomarkazlashtirishdan kelib chiqib, davlat hokimiyati organlari va ularning hududiy tuzilmalari o‘rtasida mavjud shtat birliklarini oqilona taqsimlash. Bunda muammoni joyida o‘rganib, uni yechimini topishga, kam vaqt va resurs sarflab natijaga erishish albatta motivatsiya va rag‘bat mexanizmlarining takomillashuvi asosida amalga oshiriladi.

4. **Shaffoflik** – rag‘batlantirish tadbirlarini olib borishda barcha manfaatdor tomonlarning manfaatini inobatga olgan holda ochiq, oshkora va shaffof ravishda amalga oshirish. “Ochiqlik indeksi” reytingi orqali barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining baholanishi ham uning bir shakli bo‘lishi mumkin.

5. **Javobgarlik** – davlat xizmatchilari va xodimlarga rag‘batlantirishni qo‘llash hamda uning samaradorligiga kim mas’ul ekanligini aniq belgilash, barcha manfaatdor tomonlar uchun tartibga solishga amal qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar to‘g‘risida mutasaddi organlarni xabardor qilish imkoniyatining mavjudligi.

6. **Qulaylik** – rag‘batlantirish tizimi izchil va tushunarli bo‘lishi lozim. Davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga moslashish imkoniyatining mavjudligi. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini oshirish ham uning namunasidir.

7. **Soddalik** – har qanday rag‘bat tizimi yoki uni tartibga solish, unga rioya qilish va uni qo‘llash tushunish uchun sodda bo‘lishi lozim. Oddiy fuqaro ham amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonini anglashi, unda munosabat bildirish imkoniyatining kengligi. Davlat boshqaruvida “aqli” (Smart) boshqaruv prinsiplariga bosqichma-bosqich o‘tishning asosiy g‘oyasi fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonidagi ishtiroki hisoblanadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Davlat boshqaruvi organlarida rag‘batlantirish usullarining takomillashuvi va istiqbollari (O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari misolida)”* deb nomlanib, unda mamlakatimiz ichki ishlar organlarida rag‘batlantirish usullarining takomillashuvi va istiqbollari bo‘yicha fikrlar bayon etilgan.

Dissertant mazkur paragraf doirasida keltirilgan fikrlarini asoslash va davlat boshqaruvi organlarida rag‘batlantirish usullarining takomillashuvi hamda istiqbollari belgilash maqsadida davlat fuqarolik xizmati (davlat hokimiyati va boshqaruvi organi), sud, prokuratura, Milliy gvardiya hamda ichki ishlar organlarining jami 400 nafar xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarini tahlil qilgan.

Tadqiqotchi ichki ishlar organlari doimiy professional kadrlar tarkibini shakllantirish, xodimlarning xizmat qilish davomiyligini uzaytirish bo‘yicha rag‘batlantirish, shuningdek, ularning kasbiy malakasi va shaxsiy qobiliyatlarini inobatga olgan holda, shaxsiy tarkibni lavozimlarga munosib taqsimlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

## XULOSA

Davlat boshqaruvida rag‘batlantirish usullarini qo‘llashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarining amaldagi holati tahliliga, ilmiy bilimlar, zamonaviy ijtimoiy-huquqiy konsepsiyalar, boshqa ijtimoiy fanlarning qonuniyatlariga, empirik umunlashmalar natijalariga tayanib, dissertatsiya mavzusiga oid quyidagi asosiy xulosa va tavsiyalar taklif etiladi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Tadqiqot ishi doirasida “Davlat xizmatchisi”, “davlat boshqaruvi organlari faoliyat samaradorligi” kabi tushunchalari bo‘yicha quyidagi mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi:

